

# **Tadbirkorga amaliy ko'mak – yangi mahsulot va ish o'rni demak**



Surxondaryo viloyati hokimligida haftaning har dushanba kuni tashkil etib kelinayotgan tadbirkorlar qabuli bildirilayotgan muammolarni joyida hal etish imkonini bermoqda.

Bugun, 1 mart kuni viloyat hokimi To'ra Bobolov tomonidan o'tkazilgan qabulda ham tadbirkorlarni qiynayotgan muammolarni aniqlash va bartaraf qilish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

- Pavlovniya o'simligi eng tez o'sishi, qimmatli yog'och, asal, biomassa manbai ekanligi bilan boshqa daraxtlardan ajralib turadi. Uning yog'ochidan deyarli hamma narsa – mebeldan boshlab, musiqiy asboblargacha yasash mumkin, – deydi yakka tartibdagi tadbirkor Sohiba Pardayeva. – Qabulda viloyatimiz hokimidan pavlovniya yetishtirishga bo'lgan qiziqishim, a'lo sifatli yuqori yog'och mahsuldorligi va anchagina daromadlilagini inobatga olib, menga yer maydoni ajratilishida amaliy yordam so'radim. Menga Termiz tumani hududidan dastlab 10 hektar yer maydoni ajratiladigan bo'ldi.

Qabulda 40 nafardan ziyod tadbirkorning murojaati tinglandi, muammolar yuzasidan soha mutasaddilari bilan fikr almashildi. Har bir masalaga bir haftalik muddat bilan mas'ullar biriktirildi. Murojaatlar ijrosi viloyat hokimligi tomonidan nazoratga olindi.

- Bugungi tadbir men uchun g'oyat foydali bo'ldi, – deydi denovlik tadbirkor Ulug'bek Omonov. – Sutni qayta ishlash loyihasini amalga oshirish uchun 1 millard so'm kredit mablag'i olishda amaliy yordam so'radim. Tijorat bankiga, qonun talablari asosida menga imtyozli kredit ajratish topshirig'i berildi.

Shu tariqa, qabulda kichik biznes vakillarining taklif va tashabbuslari qo'llab-quvvatlandi, ayrimlari yuzasidan ularga huquqiy tushuncha va maslahatlar berildi. Tadbirkorlarga ko'rsatilayotgan bunday ko'mak joylarda yangi ish o'rinlarini yaratish hamda ishlab chiqarish korxonalari sonining ortishiga xizmat qiladi.

